



UDK: 811.512.133'37:39

Shahnoza XAYDAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail: shahnozaxaydarova2021@gmail.com

Oriental universiteti dotsenti, f.f.n. N. Ahmedova taqrizi asosida

THE EXPRESSION OF CULTURAL CODES IN POSITIVE WISH EXPRESSIONS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article analyzes cultural codes within the framework of linguoculturology and their manifestation in positive wish expressions in the Uzbek language. The role of language as a means of reflecting an individual's national and cultural identity is substantiated, and the significance of cultural codes in expressing the worldview, values, and mentality of a people is revealed.

The study considers positive wish expressions as linguocultural units through which national culture, historical experience, and axiological perspectives are encoded. Furthermore, the interrelation of these units with religious-mythological, familial, somatic, material, ritual, and axiological codes is scientifically analyzed.

Key words: Linguoculturology, cultural code, positive wish expressions, axiological units, national mentality, linguocultural unit, ritual-pragmatic formulas, somatic code, religious-mythological code, family code, material code, Uzbek language.

ВЫРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ КОДОВ В ЕДИНИЦАХ ПОЗИТИВНЫХ ПОЖЕЛАНИЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье в рамках лингвокультурологии анализируются культурные коды и их проявление в единицах позитивных пожеланий узбекского языка. Обосновывается роль языка как средства отражения национально-культурной принадлежности человека, а также раскрывается значение культурных кодов в выражении народного мировоззрения, ценностей и менталитета. В исследовании единицы позитивных пожеланий рассматриваются как лингвокультурологические единицы, посредством которых в закодированном виде выражаются национальная культура, исторический опыт и аксиологические взгляды. Также на научной основе анализируется тесная связь данных единиц с религиозно-мифологическими, семейными, соматическими, предметными, ритуальными и аксиологическими кодами.

Ключевые слова: Лингвокультурология, культурный код, единицы позитивных пожеланий, аксиологические единицы, национальный менталитет, лингвокультурная единица, ритуально-прагматические формулы, соматический код, религиозно-мифологический код, семейный код, предметный код, узбекский язык.

O'ZBEK TILIDAGI IJOBİY ISTAK BIRLIKLARIDA MADANIY KODLARNING IFODALANISHI

Аннотация

Mazkur maqolada lingvokulturologiya doirasida madaniy kodlar va ularning o'zbek tilidagi ijobiy istak birliklarida namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Tilning insonning milliy-madaniy mansubligini aks ettiruvchi vosita sifatidagi o'rni asoslab beriladi hamda madaniy kodlarning xalq dunyoqarashi, qadriyatlar va mentalitetini ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Tadqiqotda ijobiy istak birliklari lingvokulturologik birlik sifatida qaralib, ular orqali milliy madaniyat, tarixiy tajriba va aksiologik qarashlarning kodlangan holda ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, mazkur birliklarning diniy-mifologik, oilaviy, somatik, predmetli, marosimiy va aksiologik kodlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, madaniy kod, ijobiy istak birliklari, aksiologik birliklar, milliy mentalitet, lingvomadaniy birlik, marosimiy-pragmatik formulalar, somatik kod, diniy-mifologik kod, oilaviy kod, predmetli kod, o'zbek tili.

Kirish. Tilshunoslik sohasining boshqa sohalaridan asosiy farqi shundan iboratki, u orqali insonning borliq haqidagi bilimlarini, dunyoni qanday tasavvur qilishini bilib olish mumkin. Til vositasida insonning qaysi jamiyat yoki qaysi madaniyat vakili ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Xuddi shunday lingvokulturologiyaning tadqiqot obyektlaridan biri bo'lgan madaniy kodlar ham jamiyat vakillarining dunyoqarashi haqida obzarli ma'lumot beruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega[5] bo'lib, ular yordamida xalqning qadimda yashash tarzi qanday bo'lganligi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunos olimi D.Xudoyberganova madaniyat kodlari tilda, asosan, xalqning

obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda inikos etishini hamda madaniyat kodlarida insonlarning moddiy va ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkur, aksiologik qarashlari yaqqol ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi[5].

Ijobiy istak birliklarida ham xalqimizga xos bo'lgan bir qancha kodlar ifodasini topadi. Masalan, "Nonday aziz bo'ling" ijobiy istak birligida non predmetli kod vazifasini bajarib kelgan. Ya'ni o'zbek xalqi boshqa xalqlarga qaraganda nonni ko'proq e'zozlaydi. Shu kabi misollar til - bu etnos, xalq, millat mentalitetini shakllantirishda ishtirok etishini ko'rsatib beradi [4]. P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida "Nonday aziz bo'ling, uka. Biz ko'rgan kunlarni hech ko'rmang"[2] parchasini tahlil qilar ekanmiz boshqalarga kerakli bo'lishning yuqori darajasi aynan nonga qiyoslanish orqali ochib berilganini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda "nonday aziz bo'lish" qadrlanishning yuqori darajasini

belgilagan holda rizq, halollik va muqaddaslik kodini ham ifodalab kelgan.

Xalqimizda qadimdan to'rt unsur – yer, havo, suv va olovni ulug'lab, ularni muqaddas sanab kelishgan. Chunki ularning negizi diniy dunyoqarash bilan bog'liq. Shuni hisobga olgan holda belgilagan inson uchun muhim ekanligini anglashimiz mumkin. Xalqimizda “Suvday serob bo'ling” degan ijobiy istak birligi mavjud bo'lib, tilshunos olim M.Mo'minova uni shunday tahlil qiladi: “O'zbek tilida o'xshatishga asoslangan Suvday serob bo'ling undov birikmasi qo'llanadi. Serob forscha-tojikcha so'z bo'lib, “suvli” degan ma'noni bildiradi. Suvday suvli – leksik pleonazm hodisasi kuzatiladi. Mazkur undov birikma tarkibida serob “mo'l” degan mazmunni ifodalagan”[1]. Ushbu jumlada suv o'zida seroblik hamda insonga nisbatan kengfe'llik, yaxshilik ulashuvchi kabi kodlarni ifodalab kelyapti.

Amerikalik psixolog va biznes-maslahatchi K.Rapay o'zining kitobida ta'kidlashicha, kodlar ongimizda biror bir tushunchaga bog'liq bo'lgan obrazlarni belgilab beradi, ma'lum bir madaniyatda o'rinlashgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo'lishini ta'kidlaydi.[3,168] Xuddi shunday xalqimiz hayotida to'y alohida ahamiyatga ega bo'lgan marosim hisoblanib, inson dunyoga kelganidan tortib to butun umri davomida turli xil to'ylarda qatnashadi. Masalan, Aqiqa to'yi, Beshik to'yi, Sunnat to'yi, Muchal to'yi, Fotiha to'yi, Nikoh to'yi, Oltin to'yi, Kumush to'yi kabi va h.k. Ana shu jarayonda xalqimizning ma'naviy dunyoqarashini kodlashtiruvchi ijobiy istak birliklaridan ham foydalaniladi. Masalan, “O'g'il-qizingiz ko'p bo'lsin”, “Serfarzand, serdavlat bo'ling”, “Uvali-juvali bo'ling”, “Qo'shganingiz bilan qo'sha qarinq”, “Ollohim solih va solih farzandlar bilan siylasin”, “Ikki yosh qo'sha qarisin”, “To'yniki to'yda qaytsin”, “Yanagi yil beshik to'yi qilsin”, “Topganlari doimo to'ylarga buyursin” va h.k. Keltirilgan misollarda ikki xil madaniy kod aks etgan bo'lib, biri – farzand, ikkinchisi – to'y. Ya'ni xalqimiz bolajon bo'lgani uchun ham doimo duolarida farzand so'rash, farzandlarining o'zidan ko'payib yurishini tilash holatlari kuzatiladi. Shuningdek, har bir yaxshi kunini to'y qilib, elga osh berib o'tkazishni xohlagani uchun ham topganlarining to'ylarga buyurishini istashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot lingvokulturologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik negizini til, tafakkur va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar tashkil etadi. Ishda o'zbek tilidagi ijobiy istak birliklari milliy-madaniy mazmunni, xalqning qadriyatlar tizimini va mental xususiyatlarini o'zida mujassam etgan lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilindi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda til birliklarining nafaqat semantik tuzilishi, balki ularning pragmatik vazifasi, marosimiy qo'llanishi hamda madaniy axborotni kodlash xususiyati ham asosiy mezon sifatida olindi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, semantik, lingvokulturologik, kontekstual va qiyosiy-tahliliy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida o'zbek tilida faol qo'llanadigan ijobiy istak birliklari yig'ildi, saralandi va mavzuviy guruhlariga ajratildi. Semantik tahlil asosida ushbu birliklarning lug'aviy ma'nosi, ko'chma ma'nosi va ichki semantik qatlamlari aniqlandi. Lingvokulturologik tahlil orqali esa har bir istak birligida ifodalangan madaniy kodlar — diniy-mifologik, oilaviy, somatik, predmetli, marosimiy va aksiologik kodlar — izohlandi. Kontekstual tahlil usuli yordamida ijobiy istak birliklarining badiiy matnlar, og'zaki nutq va marosimiy vaziyatlardagi funksional-semantik xususiyatlari ochib berildi. Qiyosiy-tahliliy metod esa ayrim birliklarning umumiy va differensial lingvomadaniy belgilarini aniqlashda qo'llandi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilidagi ijobiy istak birliklari — “xayrli bo'lsin”, “umringiz uzoq bo'lsin”, “rizqingiz ulug' bo'lsin”, “ziyotlaringiz qabul bo'lsin”, “to'yingiz muborak bo'lsin”, “boshingiz omon bo'lsin” kabi nutqiy birliklar — faqat ezgu tilakni emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashini ham ifodalaydi. Lingvokulturologiyada bunday birliklar madaniy axborotni kodlangan holda saqlovchi til vositalari sifatida talqin qilinadi va urf-odat, an'ana, qadriyat va milliy mentalitetni til orqali namoyon qiladi. O'zbek tilshunosligida madaniy kodlar til birliklarida milliy-madaniy mazmunni tashuvchi semantik qatlam sifatida ko'riladi.

Bu birliklarning eng muhim xususiyati shundaki, ular vaziyatga bog'liq holda qo'llanadigan marosimiy-pragmatik formulalardir. Ya'ni istak birligi faqat ma'no bermaydi, balki ijtimoiy munosabatni tartibga soladi, hurmatni bildiradi, suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabatini ko'rsatadi va milliy muomala madaniyatini ko'rsatadi. O'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklar alohida tadqiqot obyekti bo'lgani ham shundan dalolat beradi.

Ijobiy istak birliklarini madaniy kodlar nuqtai nazaridan tahlil qilganda, avvalo, diniy-mifologik kod ko'zga tashlanadi. Masalan, “ziyotlaringiz qabul bo'lsin”, “duolaringiz ijobat bo'lsin”, “xudo xohlasa”, “parvardigor asrasin” kabi birliklarda ezgulikning manbai ilohiy qudrat bilan bog'lanadi. Bunda istak birliklari shaxsning o'z kuchiga emas, balki Ollohga ishonishi natijasida yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin. Bu holat o'zbek nutq madaniyatida diniy tasavvurlar, duo va qabul bo'lish konsepti kuchli ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchi qatlam — oilaviy va qarindoshlik kodi. “Bola-chaqangizning rohatini ko'ring”, “farzandlaringiz kamolini ko'ring”, “nevara-evarali bo'ling” kabi istaklar o'zbek mentalitetida inson baxtinging markazi oila ekanini anglatadi. Bu yerda shaxsiy muvaffaqiyatdan ko'ra nasl davomiyligi, avlod barqarorligi va oilaviy saodat ustuvor qadriyat sifatida kodlangan. Demak, ijobiy istak birligi orqali jamiyatning aksiologik mezoni – “baxt” tushunchasining oilaviy mazmuni ochiladi.

Uchinchi muhim qatlam — somatik kod, ya'ni tana a'zolari orqali ifodalangan madaniy ma'no. “Boshingiz omon bo'lsin”, “qo'lingiz dard ko'rmasin”, “umringiz uzoq bo'lsin” kabi birliklarda bosh, qo'l, umr kabi tushunchalar biologik emas, ramziy ma'noda keladi. “Bosh” — hayot va martaba, “qo'l” — mehnat va halollik, “umr” esa taqdir va baraka timsolidir. O'zbek lingvokulturologik tadqiqotlarida bunday birliklar somatik kod doirasida ko'riladi; ya'ni tana a'zosi nomi kengroq madaniy mazmunni tashiydi.

To'rtinchi qatlam — maishiy-predmetli kod. O'zbek madaniyatida ayrim realiyalar milliy kod sifatida ishlaydi: masalan, do'ppi, non, dasturxon kabi predmetlar faqat buyum emas, balki xalqning turmush tarzi va qadriyatlar tizimini bildiradi. Tadqiqotlarda “do'ppi” o'zbek xalqi uchun madaniy kodlardan biri sifatida tilga olinadi. Shu sabab “Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi” singari birliklarda do'ppi oddiy kiyim emas, milliy turmush va ijtimoiy barqarorlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Xuddi shuningdek, “nonday aziz bo'ling” birligida non — rizq, halollik va muqaddaslik kodidir.

Beshinchi qatlam — marosimiy kod. O'zbek tilidagi ko'plab ijobiy istak birliklari muayyan marosimga qattiq bog'langan: tug'ilishda, sunnatda, nikohda, safarga kuzatishda, ziyoratdan qaytishda, yangi uyga ko'chishda aytiladigan tilaklar bir-biridan farq qiladi. Masalan, “to'yingiz muborak bo'lsin”, “kelin-kuyov baxtli bo'lsin”, “uyingiz qutlug' bo'lsin”, “ziyotlaringiz qabul bo'lsin” formulalari marosimiy vaziyatga moslashgan. Bu esa istak birliklarining semantikasi bilan birga ularning etnografik funksiyasi ham mavjud ekanini

ko'rsatadi: til birliklari marosimni tanitadi va marosim esa o'z navbatida birlik ma'nosini faollashtiradi.

Oltinchi qatlam — aksiologik kod, ya'ni qadriyatlar kodi. O'zbek ijobiy istak birliklarida eng ko'p takrorlanadigan konseptlar: omonlik, baraka, rizq, farzand, baxt, hurmat, qabul, sog'lik. Bu birliklar shuni ko'rsatadiki, o'zbek nutqida "yaxshi hayot" modeli individual erkinlik yoki faqat shaxsiy muvaffaqiyat bilan emas, balki sog'lik, tinchlik, oilaviy to'kislik va ilohiy baraka bilan belgilanadi. Demak, ijobiy istak birliklari xalqning qadriyatlar iyerarxiasini ixcham va ta'sirchan shaklda saqlab kelayotgan paremiologik-pragmatik vositalardir.

Yana bir jihat shuki, bu birliklarda kommunikativ odob kodi ham kuchli. O'zbek muomala madaniyatida ijobiy istak aytish — shunchaki qo'shimcha bezak emas, balki ijtimoiy yaqinlik, hurmat va ko'ngil olishning zarur shaklidir. Shu bois ular nutqda ko'pincha formulaviy xarakterga ega bo'ladi va vaziyatga mos holda tez tanlanadi. Bunday formulalar madaniyatlararo tarjimada ham aynan vaziyatga qarab berilishi kerakligi ta'kidlanadi; aks holda ularning pragmatik qiymati yo'qoladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi ijobiy istak birliklari nafaqat nutqiy formulalar, balki murakkab lingvokulturologik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ular til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettirib, milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy-madaniy tajribaning kodlangan shaklda ifodalanishini ta'minlaydi.

Tahlil natijalari asosida aniqlanishicha, ijobiy istak birliklari lingvokulturologik birlik sifatida bir necha qatlamli semantik va pragmatik tuzilishga ega bo'lib, ular orqali diniy-mifologik, oilaviy, somatik, predmetli, marosimiy hamda aksiologik kodlar tizimli tarzda namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur birliklarning faqat til hodisasi emas, balki xalqning mental modeli va kognitiv tasavvurlarini ifodalovchi konseptual struktura ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ijobiy istak birliklari kommunikativ-pragmatik funksiyasi jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etib, ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, hurmat ifodalash, emotsional yaqinlikni mustahkamlash hamda milliy muomala madaniyatini namoyon etishda faol vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu holat ularning formulaviy xususiyatga ega ekanligini va nutq jarayonida tezkor tanlanadigan barqaror birliklar sifatida amal qilishini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuningdek, o'zbek tilidagi ijobiy istak birliklarida aks etgan asosiy aksiologik konseptlar — sog'lik, baraka, farzand, omonlik, baxt kabi tushunchalar — xalqning qadriyatlar iyerarxiasini belgilovchi markaziy kategoriyalar ekanini ilmiy asosda dalillaydi. Bu esa o'zbek lingvomadaniy makonida "yaxshi hayot" modeli individual emas, balki kollektiv, oilaviy va ma'naviy mezonlar asosida qurilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ijobiy istak birliklarini madaniy kodlar nuqtai nazaridan o'rganish lingvokulturologiya fanining nazariy asoslarini boyitadi hamda ularning tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya va diskurs tahlilidagi amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mo'minova M. Suv komponentli lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari. Fil.fan.boo'yicha fal.dok.diss. Qarshi, 2024.
2. Qodirov P. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. –М.: Юнайтед Пресс, 2010.
4. Телия В.Н. Культурная коннотация как способ воплощения культуры в языковой знак / В.Н. Телия // Русская фразеология. Семантический, лингвокультурологический аспекты. - М., 1996 – С. 9-21.
5. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O'zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 2019. — №3.